

UDK: 633.18/631.17.

**TURLI SUV QALINLIKLARIDA SHOLI (ORIZA SATIVA) NAVLARIDA URUG‘LIK
VA GURUCH CHIQIMIGA TA’SIRI**

Xojamkulova Yulduzoy Jaxonkulovna

“O‘simliklar fiziologiyasi va biokimyosi” laboratoriya mudiri, q.x.f.f.d. k.i.x.

Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti

Xojambergenov Ganibay Ametovich

Don va sholi ilmiy ishlab chikarish birlashmasi Sugorish va melioratsiya laboratoriyasi mudiri,

k.x.f.n. Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti

Pirniyazov Arislanbay Joldasbaevich

Don va sholi ilmiy ishlab chikarish birlashmasi, Donli ekinlar seleksiyasi va urugchiligi

laboratoriyasi mudiri, Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti

<https://orcid.org/0009-0009-4694-7324>

+99890 979 14 97. e-mail: yulduzoyxojamkulova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12713882>

Annotatsiya. Ushbu maqolada sholi navlarining o‘sv davrlari davomida urug‘lik va guruch chiqimiga turli suv qalinliklari ta’siri o‘rganilganda, sholi maydonlariga “Iskandar” navini ekib, suv qalinligini 15 sm balandlikda ushlab turish eng yaxshi samara berishini, ya’ni urug‘ chiqimi 77,1% va guruch chiqimi 72,1 % gacha bo‘lishi keltirilgan.

Tayanch so‘zlari: Sholi, suv, urug‘lik va guruch, lineyka, rivojlanish davri, navlar.

**EFFECTS OF DIFFERENT WATER THICKNESSES ON SEED AND RICE YIELD IN
RICE (ORYZA SATIVA) CULTIVARS**

Abstract. This article discusses the effect of varying thicknesses of water on seeds and milled rice yields during periods of rice cultivation. It is assumed that the “Iskandar” plant produces the best results at a height of 15 cm with a seed yield of 77.1% and a milled rice yield of 72.1 %.

Key words: Rice, water, seeds and milled rice, linear, developmental times, varieties.

**ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНОЙ ТОЛЩИНЫ ВОДЫ НА УРОЖАЙНОСТЬ СЕМЯН И
РИСА СОРТОВ РИСА (ORYZA SATIVA)**

Аннотация. В этой статье исследуется влияние различной толщины воды на урожайность семян и риса в течение вегетационного периода сортов риса, Сообщается, что посадка сорта «Искандар» на рисовых полях и поддержание толщины воды на высоте 15 см дает наилучшие результаты, то есть выход семян составляет до 77,1%, риса — до 72,1%.

Ключевые слова: Рис, вода, семена и рис, линия развития, период развития, сорта.

KIRISH: Dunyoning bir qator, jumladan Hindiston, Xitoy, Indoneziya, Bangladesh, Tailand, Yaponiya sholi yetishtiruvchi eng qadimiy davlatlardan hisoblanadi. Dunyo dehqonchiligida ekin maydoni hajmiga ko‘ra, bug‘doydan keyingi ikkinchi o‘rinda turadi va hozirgi kunda asosiy ekin sifatida Xalqaro FAO tashkiloti ma’lumotiga qaraganda 2021 yilda dunyo bo‘yicha 158,9 million gektar maydonda sholi ekilib, 742,6 million tonna don hosili yetishtirilgan. Sholi yetishtirish hamda xarid qilishning yagona tizimini shakllantirish, yer va suv

resurslaridan oqilona foydalanish, shuningdek, ichki iste'mol bozorini yuqori sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 oktyabrdagi "Davlat ehtiyojlari uchun sholi xarid qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 fevraldagi "Sholi yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4973-son qaroriga asosan sholi yetishtirishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng qo'llash, sholi maydonlarining 20 foizini ko'chat usulida ekish, 50 foizida lazer uskunasi yordamida tekislash tizimini joriy etish, 30 foizida esa sholi urug'ini zamonaviy seyalkalarda ekish vazifalari belgilangan [1].

MUAMMONI O'RGANILGANLIK DARAJASI: Sholi dunyo aholisining qariyb $\frac{1}{2}$ qismini asosiy oziq-ovqat mahsuloti hisoblanadi. Sholi guruchi to'yimliliigi va inson organizmida tez va to'liq xazm bo'lishi bilan ajralib turadi. Sholi va undan olinadigan mahsulotlarda oqsil, yog', kraxmal, kul, kletchakta va fitin moddalar mavjud. Bir kilogramm guruch tarkibida 4000 kaloriya bo'ladi. Sholini oqlaganda o'rtacha 54% guruch, 10% maydalangan don, 13% sholi qoldiqlari, 3% un va 20% gacha qipiqlar chiqadi. Sholini oqlab guruch olganda don ishqalanadi, natijada guruchning sifati o'zgaradi. Ishqalanish natijasida oqsil miqdori 8,44 dan 7,75% gacha, moy miqdori 1,82 dan 0,53 % gacha, kul moddalar miqdori 1,29 dan 0,64 % gacha, to'qimalar 0,35 dan 0,18 % gacha kamayadi [2].

O'rganish jarayonida sholi ekilgan maydonlarda suv qalinligi hosildorlik, urug'lik sifati va biokimyoviy tarkibiga ta'sir ko'rsatishi to'g'risida bir-biriga zid fikrlar ham uchraydi. Olib borilgan tajribalarda urug'ni biotexnologik ko'rsatkichlariga yilning turlicha kelishi (harorat, garmsel, ekish muddati, urug' me'yori, o'g'it miqdori, yog'in miqdori, havo namligi) foydali havo haroratiga bog'liqligi qayd qilingan.

Tadqiqotning maqsadi. Sholi ekilgan maydonlarda 3 ta ertapishar "Guljahon", o'rtapishar "Iskandar" va kechpishar "Lazurnyy" navlarini urug'lik va guruch chiqimiga turli suv qalinliklari 5; 10; 15 va 20 sm ta'sirini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot uslublari. "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" [3], "Metodika polevyyx opitov" (B.A.Dospexov, 1985) hamda "O'zbekistonda sholi yetishtirish suvdan tejab foydalanish bo'yicha (2019) uslubiy ko'rsatma" kabi uslubiy qo'llanmalar asosida olib borilgan [4]. Sholi yetishtirishda turli suv 5; 10; 15 va 20 sm qalinliklarida urug'lik va guruch chiqimini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot natijalari. (Sholining o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga turli suv qalinliklarining ta'siri. Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasidan olingan).

Tajribalarda ertapishar "Guljahon" sholi navining urug'lik chiqimi sholi maydonlarida suv qalinligi 5 sm bo'lganda 66,3%, suv qalinligi 10 sm bo'lganda 76,6 %, suv qalinligi 15 sm bo'lganda 76,7% va suv qalinligi 20 sm bo'lganda 76,8% bo'lganligi, guruch chiqimi esa sholi maydonlarida suv qalinligi 5 sm bo'lganda 66,9%, suv qalinligi 10 sm bo'lganda 71,2%, suv qalinligi 15 sm bo'lganda 71,2% va suv qalinligi 20 sm bo'lganda 71,1% ni tashkil qilganligi aniqlandi (1-jadvalga qarang).

Sholining "Iskandar" navi urug'lik chiqimi sholi ekilgan maydonlarda suv qalinligi 5 sm bo'lganda 68,7%, suv qalinligi 10 sm bo'lganda 71,7%, suv qalinligi 15 sm bo'lganda 77,1% va suv qalinligida 20 sm 78,4 % bo'ldi. Guruch chiqimi esa 5 sm suv qalinligida 68,2%, 10 sm suv

qalinligida 72,0%, 15 sm suv qalinligida 72,1% va 20 sm suv qalinligida 72,0% bo'lganligi aniqlandi.

1-jadval.

Urug'lik va guruch chiqimiga turli suv qalinliklari ta'siri, %.

Navlar	Na'muna og'irligi, g	Suv qalinligi, sm.				Na'munadagi don soni, dona	Suv qalinligi, sm.			
		5	10	15	20		5	10	15	20
		Urug'lik chiqimi, %.					Guruch chiqimi, %.			
“Guljahon”	1000	69,3	76,6	76,7	76,8	100	66,9	71,2	71,2	71,1
“Iskandar”	1000	68,7	71,7	77,1	78,4	100	68,2	72,0	72,1	72,0
“Lazurniy”	1000	65,3	71,1	75,3	75,2	100	61,2	63,3	64,0	64,1

Sholining “Lazurniy” navi urug' chiqimi esa sholi maydonlarida suv qalinligi 5 sm bo'lganda 65,3%, suv qalinligi 10 sm bo'lganda 71,1%, suv qalinligi 15 sm bo'lganda 75,3% va suv qalinligi 20 sm bo'lganda 75,2% ni tashkil qildi. Guruch chiqimi 5 sm suv qalinligida 61,2%, 10 sm suv qalinligida 63,3%, 15 sm suv qalinligida 64,0% va 20 sm suv qalinligida 64,1% ni tashkil qildi. O'rganilayotgan barcha sholi navlarida suv qalinligi oshib borishiga mos ravishda urug'lik sifati va guruch chiqimi ham oshib bordi.

O'rganilayotgan sholi navlari orasidan kechpishar “Lazurniy” navida boshqa navlarga nisbatan urug'lik chiqish darajasi 5,2-7,2% kam bo'lishi kuzatildi. Bunga asosiy sabablardan biri navning botanik (*Indica*) turiga va biologiyasiga, ya'ni uzun donli va shishasimonligi yuqori bo'lishidir [5].

X U L O S A

O'rganilgan barcha sholi navlarida suv qalinligi oshib borishiga mos ravishda urug'lik sifati va guruch chiqimi ham ortib bordi.

O'rtapishar “Iskandar” sholi navining urug'lik va guruch chiqimi sholi ekilgan maydonlarda suv qalinligi 15 sm bo'lganda eng yuqori ko'rsatkich 77,1%, va 72,1% ni tashkil qildi.

Sholi navlari orasidan kechpishar “Lazurniy” navida boshqa navlarga nisbatan urug'lik chiqish darajasi 5,2-7,2% kam bo'lishi kuzatildi. Bunga asosiy sabablardan biri navning botanik (*Indica*) turiga va biologiyasiga, ya'ni uzun donli va shishasimonligi yuqori bo'lishidir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 fevraldagi “Sholi yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4973-son qarorida.
2. Зауров Д., Сборшикова М. “Рисоводства” Тошкент. Мехнат, 1989, 118-128 б.

3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. М., Колос, 1985.-С-350.
4. Cattarov.M.A., Ergashev.M.A., Otamirzaev.N.G‘, Qalandarov.B.I. M.Xayitovlar. “O‘zbekistonda sholi yetishtirish suvdan tejab foydalanish bo‘yicha tavsiyanoma”. Toshkent 2019. 6-7-b.
5. Xojamkulova Y.J. Sholining o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga turli suv qalinliklarining ta’siri. Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss... Andijon. 2022. 105-112-b.